

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi*

Urozimbetova Sarvinoz Rustam qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi*

Bahodirova Shaxina Bobirjonovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich talabasi*

Turdieva Dilorom Toshpo'latovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich talabasi*

Tangirova Ruhshona Otabek qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich talabasi*

Omonturdiyeva Marjona Akrom qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada borliq muammosining falsafiy mazmuni, borliq kategoriyasining falsafiy mohiyati, falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi va rivojlanish konsepsiyalari haqida fikr yuritilgan.

Ka'lit so'zlar: falsafa, borliq, mavjudlik, rivojlanish, kompetensiya, kategoriya, ilm, moddiy, ma'naviy, ruhiy.

Olamni falsafiy anglash falsafaning doimiy dolzarb muammosi bo'lib kelgan. Falsafani o'rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan aloqadordir. Chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi. Falsafa ilmining borliq va uning rivojlanish qonuniyatlarini, muammolarini o'rganadigan nazariy tarmog'i va

bilimlari sohasi ontologiya deb ataladiva u o'zining kategorial statusiga egadir. Ontologiya so'zi yunoncha ontos (mavjudlik) va logos (ta'limot) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'li, "mavjudlik haqida ta'limot, ya'ni borliq haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi.

Borliqning o'zi nima? Bu savolga javob berish uchun borliqning inson va insoniyat hayoti bilan bog'liqildizlariga nazar tashlashga to'g'ri keladi. Kishilar qadimda o'zlarini o'zini qurshab turgan jamiyat, inson va insoniyat haqida o'ylar ekan atrofida sodir bo'lib turga narsalar va hidisalarni, o'zgarishlarni kuzatishgan ba'zi narsalar esaa bugun paydo bo'ladi. SHular asosida kishilarda mavjudlik yo'qlik haqida tasavvurlar qarashlar vujudga kelgan.

Borliq turli kompetensiyalarda turlicha talqin etiladiayrim tadqiqotchilar uni muayyan moddiy borliq sifatida tushuntirishadi. Boshqalar esa uni g'oyaviy, ma'naviy, ruhiy, ilohiy mohiyat shaklida tushunishadi. Abu Nasr Farobiy yagona borliqni 6 bosqichdan iborat deb hisoblagan:

- 1 – ilk sabab (sababi avval) – hudo;
- 2 – sabab (sababi soniy) – samoviy jismlar borlig'i;
- 3 – sabab – faol aql (al – aql, al – faol);
- 4 – sabab – jon (an- nafs);
- 5 – sabab – shakl – (as – sur'at);
- 6 – sabab – modda (al – modda)

Bu bosqichlar bir – biri bilan sababiy bog'langan bo'lib ular barcha mavjudlikning boshlang'ichi hisoblanadi.

Borliq voqelikning eng umumiy ichki va tashqi mohiyati va mazmuniga aloqador barcha jihatlarini aks ettirsa mavjudlik esa voqelikning tashqi, ko'zga tashlanadigan tomonini ifodalaydi.

Borliq kategoriyasining falsafiy mohiyati quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Borliqning doimiy va abadiy mavjudligi, undagi narsa va hodisalar esa o'tkinchiligi;
2. Borliqning yagonaligi, birligi bir butunligidir;
3. Borliqning doimiy o'zgarish va rivojlanishdaligi;

4. Borliq moddiylik va ma'naviylikning birligidir.

O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. Rivojlanish bu - muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgari noma'naviy yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir. Shu jihatdan harakatning ikki turi bir – biridan faql qiladi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turqunligini saqlagan holda ro'yberadigan ichki o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni har qanday jismda beto'xtov ichki o'zgarishlar ro'y berib turadi, lekin bu o'zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekullardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilishdarajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'y beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ya'ni jismning sifatini o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo'ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo'yicha, jismda har qanday sifatiy o'zgarish ro'y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materianing sifatiy tuzulish darajasi o'zgarmasdan qolaveradi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o'simliklar va hayvonot olamining paydo bo'lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o'zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir – biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o'rganiladi.

Materialist bo'lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir – birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materianing tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon

bo'ladi;

2) materianing harakat shakllari bir – biri bilan genetic jihatidan, kelib chiqishi jihatidan ketma – ket bog'langan, ya'ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o'zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. Shu mulohazalarga tayangan holda, harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular – mexanik, fizik, kimyoviy biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Xulosa.

Borliq bizning mavjudligimiz asosi, notirik, tirik ta'biatning yashash usulidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shermuxamedova N.A. Falsafa – Toshkent: Nashir, 2012-yil.
2. Shemuxamedova N.A. Falsafa. 2 – Nashr. Toshkent: Nashir 2020 –yil.
3. Davronov Z, Sermuhamedova N, Qahhorova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. Toshkent: TMU, 2019- yil
4. Ahmedova M, Falsafa. Tahriri ostida. – Toshkent .UFMJ, 2006-y.